



UDK: 316.774:1

Ilxom BOYMURODOV,
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti tyutori
E-mail: haydarovz.history@gmail.com

O'zMU registrator ofisi menejeri, PhD F. Qilichov taqrizi asosida

PHILOSOPHICAL INTERPRETATION OF THE CONCEPT OF DIGITAL SOCIETY

Abstract

This article scientifically illuminates the concept of digital society in today's digital society, its philosophical and theoretical interpretation, the relevance of social processes in this regard, and the socio-philosophical consequences that will arise in the future. Also, a philosophical analysis of the scientific views and socio-ethical views put forward by our and foreign scientists in this direction is provided.

Key words: Digital society, thinking, consciousness, identification, technologies, Digital transformation, Post-industrial society, technological reality, information space, digital processes.

ФИЛОСОФСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ КОНЦЕПЦИИ ЦИФРОВОГО ОБЩЕСТВА

Аннотация

В данной статье научно освещены концепция цифрового общества в современном цифровом обществе, ее философско-теоретическая интерпретация, актуальность социальных процессов в этой связи и социально-философские последствия, которые возникнут в будущем. Также представлен философский анализ научных взглядов и социально-этических воззрений, выдвинутых отечественными и зарубежными учеными в этом направлении.

Ключевые слова: Цифровое общество, мышление, сознание, идентификация, технологии, Цифровая трансформация, Постиндустриальное общество, технологическая реальность, информационное пространство, цифровые процессы.

RAQAMLI JAMIYAT TUSHUNCHASINING FALSAFIY TALQINI

Annotatsiya

Ushu maqolada bugungi raqamli jamiyatda tushunchasi uning falsafiy va nazariy talqini, bu boradagi ijtimoiy jarayonlarning dolzarbligi hamda keljakda yuzaga keladigan ijtimoiy-falsafiy oqibotlari ilmiy tarzda yoritib berilgan. Shuningdek bu yo'nalishda malakatimizdagi hamda xorijiy olimlar tomonidan ilgari surilgan ilmiy qarashlar hamda ijtimoiy-axloqiy qarashlar masalasiga falsafiy tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Raqamli jamiyat, tafakkur, ong, identifikatsiya, texnologiyalar, Raqamli transformatsiya, Postindustrial jamiyat, texnologik reallik, axborot makoni, raqamli jarayonlar.

Kirish. Dunyoda raqamli texnologiyalarning jadal sur'atlar bilan rivojlanishi natijasida insoniy munosabatlar, kommunikatsiya shakllari va ijtimoiy ongning ifoda vositalari tubdan o'zgarib bormoqda. Ushbu jarayon «raqamli jamiyat» tushunchasini nafaqat texnologik, balki falsafiy va ijtimoiy-metodologik kategoriya sifatida o'rganishni dolzarb masalaga aylantirmoqda. Ayniqsa, zamonaviy falsafiy paradigmalar – postmodernizm, konstruktivizm va kommunikativ aksiologiya doirasida kommunikatsiya faqat axborot almashinuvi emas, balki ijtimoiy haqiqatni barpo etuvchi faoliyat sifatida talqin qilinmoqda. Shu nuqtai nazardan, raqamli muhitda shakllanayotgan kommunikativ reallikni ijtimoiy-falsafiy tahlil qilish, uning jamiyatdagi ijtimoiy ong, madaniy identitet va ijtimoiy amaliyotlarga ta'sirini chuqur o'rganish bugungi kun ilmiy va amaliy ehtiyojlaridan biridir. Bu masala, shuningdek, insonning raqamli makondagi mavjudligi, uning kommunikativ imkoniyatlari va cheklovlarini falsafiy jihatdan anglash zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Raqamli jamiyat tushunchasining falsafiy talqini va nazariy kategoriyalashuvi bugungi ijtimoiy-falsafiy tafakkurning dolzarb va murakkab yo'nalishlaridan biri bo'lib, zamonaviy sivilizatsiya transformatsiyalarining falsafiy ildizlarini anglash uchun mustaqil tadqiqot obyekti sifatida qaralmoqda. Raqamli texnologiyalar insoniyatning tafakkuri, ijtimoiy munosabatlari va mavjudlik shakllarini qayta tashkil qilayotgan murakkab

epistemologik, ontologik va aksiologik jarayonni anglatadi. Shu nuqtai nazardan, raqamli jamiyat nafaqat texnologik taraqqiyot mahsuli, balki insoniyatning axborotga asoslangan ongli borliqqa nisbatan munosabatining o'zgarishidir. Bu holat, avvalo, raqamli jamiyatni falsafiy kategoriyalar orqali tahlil qilishni talab qiladi. Z.Komilova “Raqamli texnologiyalar – insoniyat kelajagi” deya e'tirof etib, “axborotlashtirishni jamiyat taraqqiyotining eng muhim omili” sifatida ta'riflaydi [1]. Ushbu yondashuvda raqamli jamiyatni texnotsentrik modelda talqin qilish yaqqol namoyon bo'ladi. Biroq, bu ta'rif raqamli jamiyatning falsafiy mohiyatini chuqur anglash uchun yetarli emas.

Tadqiqot metodologiyasi. Chunki u jamiyatning antropologik, aksiologik va gnoseologik strukturalarini, ayniqsa, subyekt va identitet masalalarini chetlab o'tadi. Haqiqiy falsafiy yondashuv raqamli jamiyatni ontologik strukturasini o'zgartirgan borliq shakli sifatida tushuntirishi lozim.

Tahlil va natijalar. Ayniqsa, A.U.Norqulov tomonidan ilgari surilgan quyidagi ta'rif e'tiborga loyiq: “Raqamli identifikatsiya tizimlari – bu kibermakon va fuqaro o'rtasidagi huquqiy va intellektual interfeys bo'lib, u shaxsni raqamli muhitda tanish va nazorat qilish vositasidir”. Ushbu fikr orqali raqamli jamiyatda subyekt tushunchasi o'z mohiyatini yo'qotib, “datafikatsiyalashgan individ” darajasiga tushirilayotgani yaqqol ko'zga tashlanadi[2]. Mazkur fikrni falsafiy jihatdan chuqurlashtirib, raqamli jamiyatda

subyektivlikning o'rnini algoritmik identitet egallayotgani va bu jarayon odamni axborot-kuzatuv obyektiga aylantirayotganini ta'kidlash zarur. Yana bir muhim falsafiy yondashuvni N.Sayfullayeva raqamli etikaga doir tadqiqotlarida ilgari suradi: "Raqamli etika – bu zamonaviy texnologiyalarni mas'uliyat bilan ishlatish madaniyatidir". Bunday yondashuv axloqni insoniy emas, balki texnologik fe'l-atvoriga monand tarzda talqin qilishga olib keladi[3]. Chunki bu yerda axloqiylik normativ prinsiplar emas, balki algoritmik cheklovlar orqali belgilanmoqda. Akademik jihatdan tanqidiy baholaganda, raqamli jamiyatda etikani texnik xavfsizlik bilan tenglashtirish uning insoniy asoslarini yo'qotish bilan barobar ekani ayon bo'ladi. Shuning uchun raqamli etikani subyektga emas, tizimga yo'naltirish – bu ontologik xatodir. A.Karimov esa raqamli jamiyatni ta'lim kontekstida quyidagicha tavsiflaydi: "Raqamli transformatsiya – bu ta'lim muassasalarini raqamli muhitga moslashtirish va uzluksiz o'qitish modelini shakllantirish jarayonidir"[4] Biroq bu yondashuv ta'limning mohiyatini faqat texnik xizmat ko'rsatish sifatida anglashga olib keladi. Tanqidiy yondashuvda ta'kidlash joizki, raqamli transformatsiya faqat tashkiliy tizimlarni emas, balki tafakkur metodologiyasini ham o'zgartiradi. Bu o'zgarishlar inson bilimni strukturaviy ko'rinishdan – algoritmik va parametrik shaklga ko'chirishga olib keladi. Falsafiy yondashuv nuqtai nazaridan, bu esa gnoseologik inqirozga sabab bo'lishi mumkin.

Umuman olganda, raqamli jamiyat – bu insoniyat tarixidagi mutlaqo yangi borliq formasi bo'lib, u klassik falsafadagi mavjudlik, haqiqat, bilish va qadriyatlar kabi asosiy kategoriyalarni tubdan qayta ko'rib chiqishga majbur qiladi. Raqamli jamiyat faqat texnologik reallik emas, balki jamiyat, tafakkur va ongning virtuallashuvi bilan bog'liq bo'lgan yangi sivilizatsion shakldir. Bu jamiyatda mavjudlik – axborot oqimida ifodalansa, bilish – algoritmik qayta ishlashga tenglashtiriladi, qadriyatlar esa kodlar orqali ierarxiyalashtiriladi. Shu sababli ham raqamli jamiyatni tushunish – bu faqat texnologiyani o'rganish emas, balki borliqning yangi shaklini falsafiy asosda izohlashdir.

Raqamli jamiyat fenomeni zamonaviy falsafiy tafakkurda insoniyat taraqqiyotining yangi bosqichi sifatida talqin etiladi. Bu jarayonda texnologik inqilob nafaqat ishlab chiqarish vositalarini, balki ijtimoiy ong, bilish jarayonlari va qadriyatlar tizimini ham tubdan o'zgartirmoqda. Shu boisdan, raqamli jamiyat tushunchasini faqatgina texnologik muhit sifatida emas, balki gnoseologik va aksiologik o'lchamlarda ham ko'rib chiqish zarur. M.Castells o'zining «The Rise of the Network Society» asarida «axborot tarmoqlari global jamiyatning ijtimoiy tuzilishini yangidan shakllantirmoqda» deya ta'kidlagan va bu orqali raqamli jarayonlarning ijtimoiy-falsafiy mohiyatini asoslab bergan[5]. Ushbu yondashuv raqamli jamiyatni gnoseologik nuqtai nazardan bilishning yangi paradigmasi sifatida talqin etishga imkon beradi, chunki inson dunyoni bilishda endilikda bevosita sezgi va tajribaga emas, balki tarmoq orqali ishlab chiqilgan axborot oqimlariga tayanmoqda.

Raqamli jarayonlarning gnoseologik mohiyatini tushuntirishda L.Floridi tomonidan ilgari surilgan "infosfera" konsepsiyasi muhim ahamiyatga ega. Unga ko'ra, «zamonaviy inson axborot makonida yashaydi va bilish jarayonlari axborot oqimlarining qayta ishlalishi bilan belgilanadi»[6]. Bu fikr shuni ko'rsatadiki, raqamli jamiyatda bilim olish jarayoni klassik gnoseologik modeldan farqli ravishda algoritmik, ko'p qatlamli va tezkor bo'lib bormoqda. Ammo shu bilan birga, axborotning haddan tashqari ko'pligi inson tafakkurida yuzaki bilimlar ustunligini kuchaytirishi mumkin. Demak, gnoseologik asoslar raqamli muhitda bilimning miqdoriy

ko'pligi bilan sifat jihatdan chuqurlashuvi o'rtasidagi dialektik ziddiyatni ochib beradi.

Aksiologik nuqtai nazardan qaralganda, raqamli jamiyat insoniyat qadriyatlar tizimini ham o'zgartirmoqda. S.Zuboff o'zining «The Age of Surveillance Capitalism» asarida «raqamli iqtisodiyot insoniy qadriyatlarini utilitarizm tamoyillari asosida qayta shakllantirib, nazorat mexanizmlarini kuchaytirmoqda» deya ta'kidlaydi[7]. Bu esa raqamli jarayonlarning aksiologik mohiyatini ochib beradi: qadriyatlar endilikda erkinlik va xavfsizlik, shaxsiylik va ochiqlik, nazorat va ishtirok o'rtasidagi qarama-qarshilikda shakllanmoqda. Falsafiy jihatdan bu holat insoniyatning ma'naviy-axloqiy kelajagi uchun dolzarb savollarni tug'diradi. Bir tomondan, raqamli jamiyat universal insoniy qadriyatlarini global darajada kengaytirsa, ikkinchi tomondan, ularning instrumentalizatsiya qilinishi xavfini ham keltirib chiqaradi. Shu ma'noda, raqamli jarayonlarning aksiologik talqini insoniyatni o'z taraqqiyotini nafaqat texnologik, balki axloqiy me'yorlar bilan uyg'unlashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Shuningdek, J.Habermasning kommunikativ harakat nazariyasi ham raqamli jarayonlarning aksiologik tahlilida qo'llanishi mumkin. U "demokratik jamiyatda kommunikatsiya erkinlik va tenglik tamoyillariga asoslangan bo'lmog'i lozim"ligini ta'kidlab, bu tamoyillar raqamli makonda ko'pincha buzilishiga e'tibor qaratadi[8]. Darhaqiqat, raqamli jamiyat shaffoflikni kengaytirgan holda, axborot monopoliyasi va siyosiy manipulyatsiya xavfini ham kuchaytiradi. Demak, aksiologik jihatdan raqamli jarayonlarni faqat ijobiy taraqqiyot sifatida emas, balki axloqiy va ijtimoiy mas'uliyat nuqtai nazaridan ham tahlil etish talab qilinadi.

Raqamli jamiyat tushunchasining falsafiy talqini insoniyat taraqqiyotida yangi sivilizatsion burilish sifatida talqin qilinadi. R.Kurzweil o'zining The Singularity is Near asarida "texnologik jarayonlarning tezlashuvi insonning bilish qobiliyatini tubdan o'zgartirib, intellektual imkoniyatlarni biologik chegaralardan tashqariga olib chiqadi" deya qayd etadi[9]. Bu fikr gnoseologik nuqtai nazardan inson ongining o'zini o'zi rivojlantiruvchi algoritmik tizimlar bilan qo'shilib ketishini anglatadi. Shu bilan birga, bunday tezkor intellektual integratsiya bilishning nazariy va falsafiy asoslarini zaiflashtirib, inson tafakkurini texnologik determinatsiyaga qaram qilishi mumkin. Demak, raqamli jarayonlarning gnoseologik talqini nafaqat bilimning ko'payishini, balki uning falsafiy mazmuni va insoniylikdagi asoslarini saqlash zarurligini ham ko'rsatadi.

Raqamli jamiyat falsafiy talqinida, avvalo, bilishning yangi shakllari va ularning gnoseologik asoslari muhim o'rin tutadi. D.Bell o'zining The Coming of Post-Industrial Society asarida "bilim postindustrial jamiyatning markaziy resursiga aylanib, uning ijtimoiy tuzilishini belgilaydi" deya ta'kidlagan[10]. Bu fikr raqamli jamiyatga ham to'liq tatbiq etilishi mumkin, chunki bugungi davrda bilim endilikda ishlab chiqarishning asosiy vositasi bo'lib, uning to'planishi va qo'llanishi raqamli texnologiyalar orqali amalga oshmoqda. Shu jihatdan qaralganda, gnoseologik asoslar bilish jarayonining individuallikdan tarmoq asosidagi kollektivlikka o'tishini, bilimning esa tezkorlik va funktsionallik mezonlari bilan belgilanishini ko'rsatadi. Biroq, bu holat bilimning chuqurligi va nazariy aniqligiga putur yetkazishi ehtimoli ham mavjud.

Aksiologik o'lchamga e'tibor qaratilganda, A.Giddens o'zining Modernity and Self-Identity asarida "zamonaviylik davrida shaxsiy identifikatsiya tobora reflektiv jarayonga aylanib, qadriyatlar tizimi doimiy qayta talqin qilinadi" deya ta'kidlaydi[11]. Raqamli jamiyatda bu jarayon yanada chuqurlashadi, chunki raqamli kommunikatsiya shaxsiy qadriyatlarining global tarmoqlar orqali qayta baholanishiga

olib keladi. Bu esa bir tomondan, qadriyatlarining universallashtiruviga imkon bersa, ikkinchi tomondan, ularni fragmentar va nisbiy holga keltiradi. Demak, aksiologik nuqtayi nazardan, raqamli jarayonlar insoniy qadriyatlarni qayta shakllantiruvchi, shu bilan birga, ularning izchilligiga tahdid soluvchi ikkiyoqlama kuch sifatida namoyon bo'ladi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, raqamli jamiyatning gnoseologik asoslari bilimning jarayonli, ochiq va

diskursiyaviy shaklda qayta ishlab chiqarilishini, aksiologik asoslari esa qadriyatlarining tijoratlashuvi, autentiklikning yangi shakllari va erkinlik-nazorat dialektikasida qayta talqin qilinishini ko'rsatadi. Shu bois, raqamli jarayonlarning falsafiy tahlili insoniyat kelajagida nafaqat bilimning, balki qadriyatlarining ham barqarorligini saqlash uchun zarur nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Komilova Z.Z. Jamiyat taraqqiyotida axborotlashganlik ahamiyati // Scientific Progress. – 2023. – №4(3). – B. 87–91.
2. Norqulov A.U. Kibermakonda raqamli identifikatsiya tizimlarining huquqiy tabiati // Oriental Renaissance. – 2025. – №5(4). – B. 196–201.
3. Sayfullayeva N.J. Yoshlar orasida raqamli etika madaniyatining rivojlanishi va ta'lim tizimida roli // Ekonomika i Sotsium. – 2025. – №6(133)-2. – B. 1071–1076.
4. Karimov A.A. Raqamli transformatsiya – ta'lim sifatining lokomotividir // Academic Research in Educational Sciences. – 2023. – №4(3). – B. 235–240.
5. Castells, M. The Rise of the Network Society. Oxford: Blackwell, 2000. – P. 21.
6. Floridi, L. The Fourth Revolution: How the Infosphere is Reshaping Human Reality. Oxford University Press, 2014. – P. 93.
7. Zuboff, S. The Age of Surveillance Capitalism. PublicAffairs, 2019. – P. 55.
8. Habermas, J. The Theory of Communicative Action. Vol. 1. Boston: Beacon Press, 1984. – P. 317.
9. Kurzweil, R. The Singularity is Near. New York: Viking, 2005. – P. 136.
10. Bell, D. The Coming of Post-Industrial Society. New York: Basic Books, 1973. – P. 212.
11. Giddens, A. Modernity and Self-Identity: Self and Society in the Late Modern Age. Stanford: Stanford University Press, 1991. – P. 32.